

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

I.RAHMONOV, A.ASHIRBOYEV

GEOMETRIK CHIZMACHILIK (SHRIFTLAR)

*Oliy o'quv yurtlarining bakalavriat ta'lif yo'nalishi
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

TOSHKENT
«NOSHIR»
2009

Ushbu qo'llanmada geometrik yasashlar, yozuvlarning paydo'lishi, harf va alisboning rivojlanishi, tarixiy taraqqiyoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Harflarning tuzilishi, geometrik elementlari, klassifikatsiyasi, kompozitsiyasi, ulardagi mutanosiblik, ritm, nisbatlilik, mustahkamlik, fazoviylik kabi masalalar yoritilgan bo'lib, kalligrafik, kartografik, eski va hozirgi o'zbek yozuvlari hamda standart harflar talqin qilingan.

Qo'llanmaning ilova qismida V.Toots ma'lum qilgan "300 shriftov" majmuasidan saralab olingan shriftlar ham keltirilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallagan. Undan shu sohaga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: — pedagogika fanlari nomzodi **R. Inog'omova**
— pedagogika fanlari nomzodi **M. Abduraimova**

Rahmonov I.

Geometrik chizmachilik (shriftlar) (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma): I.Rahmonov, A.Ashirboyev. — T.: «NOSHIR», 2009. 160-b.

Rahmonov I., Ashirboyev A.

BBK 30.11 73

SO'ZBOSHI

Kundalik hayotimizni ma'rifat va ma'naviyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Boy merosimizdagи haqiqiy sharqona madaniyatimizni egallashda juda ko'p ta'lim-targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Bunday ishlarni amalga oshirishda yuqori malakali rassomlar, xattotlar, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilari ham faol ishtirok etishlari hammaga ma'lum.

Maktablarda estetik tarbiya asosini go'zallikka intilish orqali tarbiyalashda turli madaniy-oqartuv va bezak ishlari olib boriladi. Oddiy e'lon, devoriy gazeta, shior, taklifnomalarni yozish va bezashni o'quvchilarga o'rgatish orqali go'zallikka intilish ko'nikmasining, bo'lajak rassom va xattotlarning shakllanishiga asos solinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda badiiy harflar va shriftlarning ahamiyati beqiyosdir.

Shu davrgacha o'zbek tilida nafaqat maktab o'qituvchilari, balki turli toifadagi mutaxassislar va qiziquvchilar uchun ham badiiy harflar va shriftlar bo'yicha mukammal qo'llanma yaratilmagan. Hozirgi kunda, davlatimiz yozuvi lotin alifbosiga asoslanganligi tufayli, bu alifboda badiiy yozishni rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va o'qituvchilariga munosib metodik qo'llanma yaratishga harakat qildik.

Texnik hujjatlar va bezak ishlarni bajarishda oddiy qiziquvchidan tortib to yuqori malakali mutaxassisgacha bo'lgan odamlardan o'z faoliyatida uchraydigan harflar bilan bog'liq masalalar yuzasidan kitobning keyingi nashrini yaxshilashga qaratilgan foydali maslahatlarini berishadi, degan umiddamiz.

KIRISH

Deyarli har kuni turli reklamalarni ko'rib va o'qib ulardan axborotlar olib turiladi. Bunday reklamalarda diqqatni o'ziga jalb qiladigan badiiy harf va raqamlardan foydalanilgan bo'lsa, axborotlar odamlar ongiga ta'sir etib, ko'p vaqt largacha esda saqlanib qoladi.

Harf va raqamlar hozirgi ko'rinishga ega bo'lgunga qadar ko'p yo'lni bosib o'tgan. Harflarning tarixi bilan shug'ullanadigan fan **paleografiya** (yunonchada *palaios* – qadimgi va *grapho* – yozaman) deyilib, qadimdan to shu kunlargacha bo'lgan yozuvlar tarixini insoniyatga ma'lum qilib kelmoqda. Yozuvlar har bir halqning tarixi va madaniyati hisoblanadi. Bu tarix orqali butun dunyo madaniyati o'rganiladi.

Paleograflarning ta'kidlashicha harflar to'rt asosiy bosqichni boshidan kechirgan:

1. Piktografik yozuvlar – eng qadimgi zamonda harf o'rniga rasm chizish orqali yozish usuli hisoblanib, odamlar o'z his-tuyg'ularini rasmlar yordamida ifoda qilishgan. Rasmlar orqali axborotlar berishgan. Rasmlar asta-sekin ma'lum so'zlarni ifodalaydigan belgilardan **ideografik** xatga o'ta boshlagan.

2. Ideografik yozuvlar – bunday yozuvlar savdo-sotiqlar rivojlanib, davlatlar tuzila boshlagan paytga to'g'ri keladi. Qadimgi Xitoy va qadimgi Misrda grafik shaklga ega bo'lgan belgilari orqali yozuvlar paydo bo'ldi. Har bir belgi bitta so'zni anglatgan. Bu yozuv Xitoyda keng rivojlanib, **iyeroglif** (yunoncha *hiyeroglyphoi* – muqaddas o'yma) deb atalgan.

3. Bo'g'inli xat – so'zdagi bo'g'inni ifoda qiluvchi belgilari Hindistonda devanagar yozushi, Xitoy ideogrammasiga asoslangan Yaponiya yozushi vujudga keldi. Bunday belgilari asosida tovushni ifoda qiladigan harflar paydo bo'la boshlaydi.

4. Tovushni ifodalovchi harflar – iyeroglif sekin-asta belgi harfga o'ta boshladi. Natijada, odam tovushini ifoda qiluvchi harflardan alifbo tuzila boshlandi. Alifbodagi harflarning soni har bir xalqning tiliga bog'liq.

Birinchi alifbo miloddan avvalgi XI asrda finikiyaliklar tomonidan yaratildi va u orqali butun dunyodagi alifbolar rivojlanishiga asos

solindi. Miloddan avvalgi VIII—VII asrlarda yunon, miloddan avvalgi IV asrda arab, miloddan avvalgi III asrda lotin va keyinroq boshqa alifbolar vujudga keldi.


Markaziy Osiyoda qadimgi Xorazm yozuvi miloddan avvalgi III asrdan, O'rxun—Yenisey yozuvi milodimizning V—VIII asrlaridan, arab yozuvi VII asrdan, lotin alifbosi 1929-yildan, 1940-yildan «Kirillitsa» (rus) alifbosi, 1996-yildan boshlab Respublikamizda lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuviga o'tildi.

I. GEOMETRIK YASASHLAR

Turli figuralarning tasvirlarini chizishni, shu jumladan, shriftlar yozishni oddiy geometrik yasashlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Geometrik yasashlar: to'g'ri va egri chiziqlar chizish, o'zaró parallel va perpendikular chiziqlar chizish, turli burchaklar yasash, har xil ko'pburchaklar yasash va boshqa shu kabilar. Bunday yasashlarni chizish asboblari yordamida bajarish mumkin.

Qalamni ishga tayyorlash. Qalamning grafiti uning tamg'asi ko'r-satilgan tomonining teskari uchidan konussimon shaklda ochiladi. Qalamning ochilgan yog'och qismining uzunligi 25–30 mm, grafitning chiqib turgan qismi 8–10 mm bo'lishi lozim (1-shakl). Qalam uchi grafitini mayda qum (jilvir) qog'ozdan foydalanib,unga ishlov berib uchlanadi (1-shakl, b), sirkulda ingichka chiziqlar chizish uchun qalamning grafiti 1-shakl, d dagidek bir tomonlama qum qog'ozga ishqabal charxlanadi.




1-shakl

Ingichka chiziqlarni chizish uchun qalam uchi konussimon shaklda ochiladi. Chizilgan chizma chiziqlari ustidan asosiy yo'g'on tutash chiziqlarni chizishda qalam uchi kurak shaklida ochiladi (1-shakl, e). Hozirgi vaqtida turli yo'g'onlikdag'i grafit sterjenli sangali qalamlaridan ham foydalanilmoqda. Ulardan chizmalar chizishda samarali foydalanish mumkin.


Chizg'ich. Chizma chizishda chizg'ichning millimetrlangan qirrasidan foydalaniladi. Shunga ko'ra uning xuddi shu qirrasi yaxshi holda saqlanishi lozim. Chizg'ichning har ikkala tomoni, ya'ni chizma chizadigan qirralari silliq va to'g'ri bo'lishi kerak.

To'g'ri burchakli uchburchakliklar. Bunday uchburchakliklar $45^\circ \times 90^\circ \times 45^\circ$ va $30^\circ \times 90^\circ \times 60^\circ$ ko'rinishida ishlab chiqariladi. Uchburchaklikning bir tomonini chizg'ichning to'g'ri qirrasiga qo'yib (1-holat, 2-shakl, *a*), vertikal kateti bo'yicha chiziq chiziladi. Keyin chizg'ichning vaziyatini o'zgartirmasdan uchburchaklik boshqa tomoni bilan qo'yiladi (2-holat, 2-shakl, *b*). Shunda uchburchaklikning kateti oldingi chizilgan chiziqqa ustma-ust tushsa (2-shakl, *b*), 90° li burchak aniq yasalgan hisoblanadi. Agar 2-shakl, *d* dagidek bo'lsa, 90° li burchak xato yasalgan hisoblanadi. Bunday uchburchalikning bir tomonini qum qog'ozga ishqalab xatoni bartaraf qilish lozim bo'ladi.




2-shakl

Gotovalnya. Aylana va uning yoyslarini chizishga, chiziqlarni o'lchab chizishga mo'ljallangan chizmachilik asboblari to'plamiga *gotovalnya* deyiladi (3-shakl).



3-shakl


Chizmachilik sirkuli. Sirkullar chizadigan va o'lchaydigan bo'ladidi. Chizish sirkuli (4-shakl, a) aylana va uning yoyslarini chizishga mo'ljallangan. Uning asosiy qismlari – uzun oyog'i va qisqa oyog'i hamda qisqichi hisoblanadi. Chizma qalam bilan chiziladigan bo'lsa, qisqa oyog'idagi qisqichga qalamlari moslama qo'yiladi va gayka bilan mahkamlanadi. Aylana yoki uning yoyslarini chizishga kirishishdan oldin sirkulning grafitli sterjeni va ignasining uchlari baravar qilib olinadi (5-shakl, a). Ularning noto'g'ri joylashganligi 5-shakl, b da ko'rsatilgan.



4-shakl

Rejalash sirkuli yoki o'lchagich. Bir xil kattalikda ko'p marta takrorlanadigan kichik-kichik kesmalarni aylana yoyslariga yoki to'g'ri chiziqliga aniq o'lchab qo'yish paytida o'lchagichlardan foydalilaniladi (4-shakl, b).

To'g'ri chiziq yoki aylana yoyiga kichik-kichik kesmalarni ko'p marta o'lchab qo'yishni chizg'ich yordamida bajarsa ham bo'ladi,



ammo masofalar aniq chiqmaydi. Sababi qalam uchi millimetrlangan chiziqchalar orqali nuqtalar qo'yilganda chizg'ichning qalinligi hisobiga sezilarli bo'lmasa ham xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Shu boisdan, bunday hollarda o'lchagichdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chizma qog'oz. Qalin, silliq oq qog'oz bo'lib, unda qalamda chizilgan qismlarini bir necha marta o'chirish mumkin. Bunday qog'ozlarda tushda chizilgan chiziqlar yoyilib ketmaydi.

Oq chizma qog'oz – GOST 597–56 ga muvofiq B va O markalarda ishlab chiqariladi va list (varaq) ko'rinishida A4, A3, A2, A1, A0 formatlarda kesilgan bo'ladi. Ba'zan metrik rulon holida ham sotuvga chiqariladi. So'nggi paytlarda A3 formatda kesilgan, papkaga solingan 10 varaqdan iborat chizma qog'oz chiqarila boshlandi. O'quv yurtlarida bajariladigan chizmalar uchun bu juda qulay.

B markali qog'oz yuqori sifatli bo'lib, unda uzoq vaqt saqlanadigan muhim chizmalar chiziladi.


O markali qog'ozdan esa konstruktorlik byurolarida va o'quv yurtlarida chizmalar chizishda foydalaniladi.

Millimetrali qog'oz. GOST 334–56 ga muvofiq rulon yoki varaq ko'rinishida ishlab chiqariladi. Millimetrali qog'ozdan diagramma, sxema va turli grafikalarni, shuningdek, o'quv yurtlarida detallarning eskizlarini chizishda foydalaniladi.

Kalka. Yupqa shaffof qog'oz bo'lib, GOST 892–47ga asosan rulon ko'rinishida ishlab chiqariladi. GOST 1111–61ga asosan У ва Џ markali qalambop kalkalar ham ishlab chiqariladi. Bu kalkalarda chizmalar to'g'ridan-to'g'ri qalam bilan chiziladi.

Kalka chizmaning asl nusxasidan ko'chirib olishda va ko'chirilgan asl nusxalardan ko'plab nusxalar ko'paytirishda ishlatiladi.


Qalam ushslash. Chiziq chizishda qalamni to'g'ri ushslash chizmaning chiroyli va to'g'ri chizilishiga yordam beradi. Qalamni uning ochilgan joyiga yaqinrog'idan uch barmoq, ya'ni bosh, ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bilan ushlanadi. Chizish vaqtida harakat yo'nalgan tomonga bir oz qiya qilib ushlanadi. Chiziq chizgan vaqtida jimjiloq chizg'ich ustidan sirpanib boradi. Chizg'ich siljib ketmasligi uchun uni 6-shakldagidek chap qo'l bilan ohista bosib turiladi.



6-shakl

Qalamning qattiq joyga tushib ketishidan asrash lozim, aks holda ichidagi grafiti maydalanib ketadi va qalam yaroqsiz holga keladi.


Turli vaziyatdagи to'g'ri chiziqlarni chizish. Gorizontal chiziqlar hamma vaqt ufq (gorizont) chizig'iga parallel olinadi. Gorizontal chiziqlar chapdan o'ngga qarab chiziladi. O'zaro parallel gorizontal chiziqlar chizishning eng qulay usuli 7-shakldagidek ikkita uchburchaklik yoki chizg'ich va uchburchaklik yordamida chizishdir. Ular yordamida parallel chiziqlar chizilganda ularning bittasi yo'naltiruvchi qilib olinadi. Yo'naltiruvchisi qo'zg'alib ketmasligi uchun oldin uni chap qo'l bilan so'ngra ikkala chizg'ich (uchburchakliklar) va uchburchaklik mahkam bosib turiladi.



7-shakl

Vertikal chiziqlar chizish. Vertikal chiziqlar gorizont (ufq) chizig‘iga perpendikular holda o‘tkaziladi. Yerga tik turgan narsalar, odatda, vertikal turgan narsalar deyiladi. Shunga ko‘ra bunday chiziqlar vertikal chiziqlar deyiladi. Chizmada vertikal chiziqlar chizma qog‘ozining tik yon tomonlariga parallel yoki gorizontal chiziqlarga perpendikular qilib o‘tkaziladi.


Vertikal chiziqlar pastdan yuqoriga qarab chiziladi (8-shakl, a). O‘zaro parallel vertikal chiziqlarni chizishning eng qulay usuli ikkita uchburchaklik yoki chizg‘ich va uchburchaklikdan foydalanib chizishdir (8-shakl, b).



8-shakl

Qiya chiziqlar chizish. Qiya holatdagи chiziqlar gorizontal va vertikal chiziqlarga nisbatan ixtiyoriy burchakda joylashadi. Vertikal yoki gorizontal chiziqlar o‘z vaziyatlarini o‘zgartirsa, qiya chiziqlar o‘tib qoladi. Gorizontal va vertikal holatdan boshqa holatni egallagan chiziqlar qiya chiziqlar deyiladi.


Qiya chiziqlarni chizmadagi holatiga qarab, yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab chiziladi. O'zaro parallel qiya chiziqlarni yuqorida bayon qilingan usulda chizish tavsiya etiladi (9-shakl).



9-shakl

O'zaro parallel chiziqlar chizish. Ularni sirkul yordamida yoki o'lchab qo'yish yo'li bilan ham chizish mumkin. Masalan, AB to'g'ri chiziq kesmasiga 30 mm da unga parallel to'g'ri chiziq o'tkazish uchun A va B nuqtalardan 30 mm li yoylar sirkulda chiziladi va u yoylarga urinma chiziladi (10-shakl, a). Yoki A va B nuqtalardan kesmaga 90° burchakda ingichka chiziqlar chiziladi va ularga 30 mm li kesmalar o'lchab qo'yiladi. Hosil bo'lgan 1 va 2 nuqtalar o'zaro tutashtiriladi (10-shakl, b).


O'zaro perpendikular chiziqlar chizish. Ikkita to'g'ri chiziq bir-biriga nisbatan 90° burchak hosil qilib joylashsa, ularni o'zaro perpendikular vaziyatdagi chiziqlar deyiladi.




10-shakl

Bunday chiziqlarni aniq chizish uchun oldin to'g'ri chiziq chizib olinadi va undagi O nuqtadan ikki tomonga $OA = OB$ kesmalar o'lchab qo'yiladi. A va B lardan OA (OB)dan kattaroq yoylar chizilib, ular-

ning o'zaro kesishayotgan I va 2 nuqtalari tutashtirilsa, O nuqtadan o'tuvchi AB ga perpendikular chiziq hosil bo'ladi (11-shakl, a).




To'g'ri chiziqdagi tashqaridagi A nuqtadan unga perpendikular chiziq o'tkazish uchun A nuqtadan to'g'ri chiziqni kesib o'tadigan yoy sirkulda chiziladi va hosil bo'lgan O_1 , O_2 nuqtalardan 3 nuqtada kesishadigan ixtiyoriy kattalikdagi yoylar chiziladi. A va 3 nuqtalar o'zaro tutashtiriladi, shunda o'zaro perpendikular chiziqlar chizilgan bo'ladi (11-shakl, b). a to'g'ri chiziqning Kuchidan unga perpendikular chiziq o'tkazish uchun to'g'ri chiziqdagi tashqarida O nuqta ixtiyoriy tanlab olinadi. O nuqtadan OK radiusda aylana chiziladi va aylananing to'g'ri chiziq bilan kesishgan nuqtasi I aylana markazi O bilan tutashtirilib davom ettirilsa, aylana bilan 2 nuqtada kesishadi. 2 nuqta va K o'zaro tutashtiriladi. Shunda a chiziqqa perpendikular $K2$ chiziq hosil bo'ladi (12-shakl).



12-shakl

To'g'ri chiziq kesmasini o'zaro teng bo'laklarga bo'lish. Ko'p geometrik yasashlarda to'g'ri chiziqlarni ma'lum miqdorda o'zaro


teng qismlarga bo'lish talab qilinadi. Masalan, AB kesmani o'zaro teng beshta qismga bo'lish uchun AB kesmanidan ixtiyoriy burchakda yordamchi ingichka chiziq chiziladi (13-shakl, a), unga A nuqtadan boshlab bir xil uzunlikdagi beshta kesma o'lchab qo'yiladi (13-shakl, b). Oxirgi 5 nuqta B bilan tutashtirildi va 4, 3, 2, 1 nuqtalardan $5B$ ga parallel chiziqlar chizilib, AB teng beshga bo'linadi (13-shakl, d).




13-shakl

Burchaklar yasash. Har qanday burchakni transportir, sirkul yoki uchburchakliklar yordamida yasash mumkin.

Burchaklarni sirkul yordamida bo'lish. To'g'ri burchak ABC ni teng ikkiga bo'lishda B nuqtadan ixtiyoriy kattalikdagi radius R bilan yoy chiziladi va uning burchak tomonlari bilan kesishayotgan nuqtalari belgilanadi (14-shakl, a). 1 va 2 nuqtalardan o'zaro kesishadigan yoqlar chizilsa, ular kesishib E nuqtani hosil qildi. E nuqta B bilan tutashtirilsa, burchak teng ikkiga bo'linadi (14-shakl, b). BE chiziq burchakni teng ikkiga bo'lувчи bissektrisa chizig'i deyiladi. Shu usulda ixtiyoriy o'tkir (o'tmas) burchaklarni teng ikkiga bo'lish mumkin (15-shakl).




14-shakl



15-shakl


To‘g‘ri burchakni teng uch qismga bo‘lish uchun B nuqtadan ixtiyoriy kattalikdagi aylana yoyi chiziladi va u yoyning kattaligini o‘zgartirmasdan 1 va 2 nuqtalardan yana yoyslar chizilsa, 3 va 4 nuqtalar hosil bo‘ladi. Endi 3 va 4 nuqtalar B bilan birlashtirilsa, to‘g‘ri burchak teng uch qismga bo‘linadi (16-shakl).



16-shakl


Aylanalarni o‘zaro teng bo‘laklarga bo‘lish va muntazam ko‘pburchaklar yasash. Geometrik yasashlarda aylanani teng bo‘laklarga bo‘lish va muntazam ko‘pburchaklar yasash tez-tez uchrab turadi.

Har qanday diametr, ya’ni aylana markazidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq (1 2) uni teng ikkiga ajratadi (17-shakl, a). Aylananing ikkita o‘zaro perpendikular diametri uni teng to‘rt qismga bo‘ladi (17-shakl, b). Aylananing ikkita o‘zaro perpendikular diametri hosil qilayotgan to‘g‘ri burchaklari 14-shakldagidek ikkiga bo‘lish orqali uni teng sakkiz qismga bo‘lish mumkin (17-shakl, d). Aylanani teng bo‘lishda hosil qilingan nuqtalar o‘zaro tutashtirib chiqilsa, *muntazam to‘rburchak* (kvadrat), *sakkizburchak* hosil bo‘ladi (17-shakl, b, d). 16-shakldagidek aylananing chorak qismi teng uchga bo‘linsa, *o‘nikkiburchak* yasash ham mumkin.




17-shakl

Aylanani teng uch qismga bo'lish. Aylanani sirkul yordamida o'zaro teng 3, 6 va 12 qismlarga bo'lish, aylanani teng uchga bo'lishdan boshlanadi. Aylana markazidan o'tuvchi vertikal diametr chiziladi va uning aylana bilan kesishgan N nuqtasidan aylana radiusiga teng yoy chiziladi va aylana bilan kesishtiriladi. Hosil bo'lgan 2 va 3 nuqtalar I nuqta bilan tutashtirilsa, *muntazam uchburchak* yasaladi (18-shakl, a, b). Aylanani uchga bo'lishning davomi uni oltiga bo'lish hisoblanadi. Aylananing vertikal diametri bilan kesishayotgan 1 va 4 nuqtalaridan aylana radiusiga teng yoqlar bilan aylana kesishtirilsa, u teng olti qismga bo'linadi (19-shakl, a, b).




18-shakl




9-shakl

Aylananing gorizontal va vertikal diametlari bilan kesishayotgan nuqtalaridan radiusiga teng yoqlar chizilsa, aylana teng 12 qismga bo'linadi hamda u nuqtalar o'zaro tutashtirilsa, *muntazam o'nikkiburchak* yasaladi (20-shakl, a, b).



20-shakl

Aylanani o'zaro teng besh qismga bo'lish uchun aylana radiusi OA teng ikkiga bo'linadi. Buning uchun sirkul ignasi uchini A nuqtaga qo'yib, aylana radiusiga teng yoy bilan B va C nuqtalar hosil qilinadi. B , C nuqta birlashtirilsa, OA da E nuqta belgilanadi (21-shakl, a). E nuqtadan EI radiusda yoy chizib, K nuqta topiladi (21-shakl, b). I nuqtadan IK radiusda yoy chizilsa, 2 va 5 nuqta aniqlanadi. Hosil bo'lgan 1 2 (1 5) kesma 2 va 5 dan aylanaga o'Ichab qo'yiladi. Shu tartibda qolgan nuqtalar belgilanadi va barcha nuqtalar o'zaro tut-ashtirilgandan so'ng muntazam beshburchak yasaladi (21-shakl, d).



21-shakl

II. HARFLAR

Yozuvlar rivojlanishining qisqacha tarixi

Alifbodagi belgilar harf va raqam deyilib, ular o'zlarining yozilishi (tuzilishi) jihatidan umumiy qonun-qoidaga asoslanadi.


Harflar minglab yillar davomida murakkab jarayonlar natijasida tarkib topib hozirgi ko'rinishiga ega bo'lgan.

Odamlar o'z his-tuyg'ularini bayon qilish va bir-biriga u yoki bu narsa to'g'risida tushuncha berish maqsadida turli rasmlardan foydalanishgan. Masalan, Markaziy Osiyorning Jizzax viloyatida toshga o'yib bitilgan yozuv-rasmlar topilgan. Ular neolit davriga mansub hisoblanib, miloddan avvalgi V-III asrlarda bitilgan (22-shaklda bu yozuv-rasmlardan namunalar keltirilgan).



22-shakl

Miloddan uch ming yil avval tashkil topgan iyeroglislar hozirgi zamon harflarining boshlanishi hisoblanadi. Miloddan avval. IV asrda Qadimgi Vavilonda Shumerlar tomonidan ponasimon harflar yaratilgan bo'lib, loydan yasalgan taxtachalarga o'yib yozilgan (23-shakl, a). Pona uchlaringin yo'nalishi va ularning qo'shib joylashtirilishi orqali tovushlar hosil qilingan (23-shakl, b). Masalan, Novuxodonosor ismining yozilishi 23-shakl, d da tasvirlangan.



b




d

23-shakl




24-shakl

Miloddan avvalgi uch minginchi yillardayoq xitoyliklar o'ziga xos iyerogliflardan foydalanishgan (24-shakl, a, b, d, e). Ular Xitoydan butun Janubiy Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. Masalan, yaponiyaliklar ham yozishni xitoyliklardan o'rganishgan bo'lib, ideografik – fonetik xatni 1850 ga yaqin belgilarda yaratishdi. O'zgalardan olgan so'zlarni katakana usulida, o'zlarining so'zlarini xiragana usulida bitishgan. Shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari O'rxun–Yenasoy yozuvidan foydalanishgan (25-shakl).



25-shakl

Asta-sekin harflar simvolik tarzda belgilanishidan tovushni ifoda qiluvchi belgilar ko'rinishiga ega bo'la boshladi. Shunday qilib iyerogliflar davr o'tishi bilan tovushni ifoda qiladigan belgilarga o'ta boshladi (26-shakl, a, b, d).



26-shakl

27-shaklda miloddan avvalgi XIV–XIII asrlarda bitilgan sinayliklar yozuvidan namuna berilgan.




27-shakl

Finikiyaliklar yozuvi miloddan avvalgi XIII asrdan boshlab Karfagenda qo'llanilgan. Bu yozuv aramey, isroilliklarning kvadrat va yunon yozuvlariga asos bo'lgan. Aramey yozuvidan arab yozuvi paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Braxma xati Hindiston va hindi-xitoy mamlakatlariga tarqaldi. 28-shaklda shu yozuv harflaridan namunalar keltirilgan.




28-shakl

Miloddan avvalgi VI-II asrlar davomida Kipr yozuvi paydo bo'ldi. 29-shaklda shu yozuvning ba'zi harflari ko'rsatilgan.




29-shakl

Rimda miloddan avvalgi II–I asrlarda lotin alifbosi yaratildi va bu alifbo shu kunlargacha deyarli o'zgarishsiz yetib keldi va u «Rim kapital harfi» deb nomlanib, turli ko'rinishlarda rivojlanib, butun dunyoga tarqaldi. Miloddan avvalgi IV asrda aramey yozuvi asosida yaratilgan arab yozuvi shu kunlargacha deyarli o'zgarmagan (30-shakl).



30-shakl

Miloddan avvalgi III asrda Xorazmda idishga yozilgan xat namunasi (31-shakl, *a*) hamda Xorazm arxividagi hujjatdan olingan yozuv namunasi (31-shakl, *b*) dan ko‘rinib turganidek, qadimda Markaziy Osiyoda ham yozuv bo‘lgan.




31-shakl

Qadimgi Xorazm shohlarining tangalarida ham yozuvlar zarb etilgan. 32-shakl, *a* da I asrda zarb etilgan noma'lum shoh tangasidagi yozuvdan, 32-shakl, *b* da III asrda zarb etilgan Vazamar shoh tangasidagi yozuvdan namunalar keltirilgan.



32-shakl

V asr boshlarida Mesrop va Mashtotslar tomonidan yunon alif-bosiga asoslangan arman yozuvi yaratilgan (33-shakl).



33-shakl

V asrda arameylar yozuvi asosida gruzinlar o'z yozuvini tashkil etishdi (34-shakl).

Raqamlar birinchi marta Misr va Vavilonda hisob-kitoblar qilishda tatbiq qilingan va ular qadimgi yunonliklarda, finikiyaliklarda, isroiliklarda, suriyaliklarda alifbo harfi sifatida ishlatalgan. Shunday hol Rossiyada ham XVI asrgacha davom etgan.



34-shakl

X asrda Ispaniyaga arablar tomonidan olib kirilgan Hindiston raqamlari XV asrning ikkinchi yarmidan Yevropaga keng tarqalib, arab raqami deb yuritila boshladi. Ungacha Yevropada rim raqamlaridan foydalanishgan.

IX asrda yunon va lotin alifbolari asosida Kirill va Mifodiy «Kiril-litsa» deb nom olgan slavyan alifbosini yaratdilar. Sekin-asta kirillisa o'sha davrgacha glagolisa (35-shakl, *a*) deb nomlangan yozuvni surib chiqardi (35-shakl, *b*).

TAKOЖЕНІЗ

35-shakl

Lotin alifbosи asosidagi harflar turli davrlarda turlicha nomlanib kelgan. O'rtа asrlarda gotika, uyg'onish davrida antikva shaklida rivojlangan. Kundalik yozuv ishlarida qulay bo'lishi uchun xattotlar katta (bosma) harflar – mayuskullar o'rnida asta-sekin kichik (yozma) harflar – minuskullardan foydalana boshlashdi va ular keyinchalik «kursiv» deb atala boshlandi. Shunday qilib hashamatli katta harflar o'rnida ixcham, sodda va qulay bo'lgan yozma harflar tatbiq qilina boshlandi (36-shakl). Yozish jarayonida xattot va rassomlarning yozish qobiliyatiga binoan harflarning asosiy shakli saqlangan holda grafik tuzilishi o'zgarib turadi. Yozish asboblarining ham takomillashishi tufayli kapital harfning kvadrat, rustika ko'rinishlari vujudga keldi (37-shakl).

ichigan...
LRRC...

36-shakl

NOCEM

37-shakl

Milodning boshlarida arxitekturaga yumaloq shakldagi arkalar kirib kelishi munosabati bilan harflarda ham o'zgarishlar ro'y beradi.

IV asrga kelib unsial (38-shakl, a), keyinroq yarim unsial (38-shakl, b) yozuvlar paydo bo'ldi. VIII asrning oxirlarida karoling minuskuli deb nom olgan harf keng tarqala boshladi (39-shakl).


minoeue
minoēue

38-shakl

cuno harf

39-shakl

XI asrga kelib kapital va unsial yozuvlardan lombard versali tarqaldi (40-shakl). Bu dekorativ harf hozirgi davrlarda ham keng qo'llanilmoqda.



40-shakl

XVIII asrga kelib gravyura san'ati rivojlanishi bilan yozuvda klassik antikva vujudga keldi. XIX asrda unsurlarining yo'g'onligi bir xil bo'lgan misr g'o'lasimon harfi (41-shakl a), keyinroq grotesk (qir-qilgan) harfi (41-shakl, b) paydo bo'ladi. Qirqilgan harflarda chetga chiqadigan unsuri (chiqiq) unuman bo'lmaydi.

ABCDEF ABCDEF

a

b

41-shakl

XV asr oxirlarida Olmoniyada tipografik harflar yaratilishi munosabati bilan kitob bosish davri boshlandi. Iogann Gutenberg birinchi bo'lib gotika harfida kitob chop etdi (42-shaklda kitobdag'i harf namunalari keltirilgan). Shu davrlarda Venetsiyada ham kitob bosish rivojlna boshladi. Nikolay Ienson 1471 yili antikva asosida tipografik harf yaratdi (43-shakl).

Jnapit

42-shakl

Attice

43-shakl

1419-yili Ald Manutsiy kursiv harf asosida kitob chop etdi. 1540-yili Klod Garamon Parijda antikva tipografik harflarini joriy etdi (44-shakl, a, b).


Aa Bb Cc Quis Et

a

b




44-shakl

1509-yili Leonardo da Vinchining shogirdi Luko Pacholi ustozining qo'lyozmasi asosida harflar yaratdi (45-shakl).






45-shakl

L. Pacholi barcha harflarning bittadan turini kvadratga nisbatan chizib chiqdi (46-shakl, *a*). Olmoniyalik Albrekt Dyurer esa har bir harfning turli ko'rinishlarini yaratdi (46-shakl, *b*).




a



b

46-shakl

Joffrua Tori ham Pacholi kabi harflarning bittadan turini kvadrat ichiga joylashtirdi (47-shakl).




47-shakl

Harf tuzilishlarida asosiy o'zgarishlar XVIII asr oxiri XX asr boshlarida ro'y berdi. Barcha harflar uni yaratgan xattot yoki rassom, nashriyot, shahar yoki joy nomi bilan atala boshladi.

Har bir yaratilgan harf o'zining ko'rinishi (stili) jihatidan bir butun bo'lib, boshqa harflardan tuzilishi, unsurlarining joylashishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun alifbodagi har bir harf ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunishi orqali bir butunlikni tashkil qiladi.

Mabodo alifbodagi bitta harfnинг tuzilishi yoki unsuri boshqa harflardan farq qilsa, harfnинг butunligi yo'qoladi va boshqalardan ajralib turadi. Alifbodagi yangi harflarni yaratish jarayonida ularni guruhlab, takrorlanib turadigan unsurlarining belgilarini bitta qoidaga bo'ysunadigan poligrammaga joylashtirib chiqiladi (48-shakl).

Texnika rivojlanishi bilan chizmalarga o'chamlar qo'yish, tush-untilish matnlarini yozish uchun dastlabki harf va raqamlar 1854-yilda yaratildi.



48-shakl

Hozirgi vaqtida chizmalar uchun har qaysi mamlakatning davlat standartiga ko'ra lotin, yunon va rus alifbolari mavjud. Shu kunlarda yurtimizda chizmalarga o'lchamlar qo'yish va tushuntirish matnlarini yozish uchun 49-, 50-, 51-shakllarda berilgan standart harflardan foydalaniladi.

A B C D E F G H I J K L

M N O P Q R S T U V

X Y Z I I I I I V / X I / V

a b c d e f g h i j k l m

n o p q r s t u v x y z

1 2 3 / 5 6 7 8 9 0 . 3

49-shakl

ΑΒΓΔΕΖΗΘΙΚΛ

ΜΝΞΟΠΡΣΤΥΦ

ΧΨΩ αβγδεζη

Θυκλιμξολφσ

τυφχψω

АБВГДЕЖЗИЙК

ЛМНОПРСТУФ

ХЦЧШЩЪЫЬЭ

ЮЯ абвгдежзи


ҔКЛМНОПРСТУХ

ФЦЧШЩЪЫЬЭЮЯ

51-shakl

Harfning tuzilishi

Har bir harfning tuzilishida uning unsurlari mavjud bo'lib, shu unsurlarning shakliga, ingichka va yo'g'onligiga (52-shakl) binoan harflar 5 ta asosiy guruhga bo'linadi.



52-shakl



53-shakl

Qavs ichida harf unsurlarining asosiy shtrixga nisbatan yozilishi ko'rsatilgan. Bir xil turdag'i harflarning bog'lovchi shtrixlari va chiziqlarining yo'g'onligi o'zgarishi orqali harf ko'rinishi o'zgaradi (54-shakl).




54-shakl

Shuningdek, harflar hajmli, ingichka chiziqli, hajmli, siluetli va skeletli bo'ladi (55-shakl, *a*, *b*, *d*, *e*).



55-shakl

A. Dyurer harflarni simmetriyali, simmetriyasiz qilib tuzgan (56-shakl). Simmetriyali harflar turg'un, simmetriyasiz harflar jo'shqin, ko'rinadi (56-shakl, *a*, *b*). Ba'zi hollarda harflarda simmetriklik va nosimmetriklik buzilsa, ikkalasi o'rtasidagi ko'rinish hosil bo'ladi (56-shakl, *d*).



56-shakl

Harflarning unsurlariga o'zgartirish kiritish orqali dekorativ harflar yaratish mumkin (57-shakl).



Harflarning tuzilishi, unsurlarining joylashishi matnning qulay yoki noqulay o'qilishiga ta'sir etishi mumkin.

1. *Harfning konturi xususiyati (xarakteri)*. Harflar yumaloq, to'g'ri chiziqli va aralash bo'lsa, ko'proq yumaloq harflar o'qish uchun qulay hisoblanadi, chunki yumaloq harflarni ko'z tezroq ilg'aydi.

Burchaklari yumaloqlangan harflarga qaraganda to'g'ri burchakli harflar qulayroq o'qiladi, chunki harf burchaklari ularni boshqalardan ajratib turuvchi individuallik belgilardan biri hisoblanadi. Aralash harflar o'rtacha o'qiladi.

2. *Asosiy va bog'lovchi shtrixlarning o'zaro nisbati (shtrixlarning ziddigi)*. Harflarni bog'lovchi shtrixlari juda ingichka bo'lsa, matnni o'qishda qiyinchilik yuzaga keladi. Chunki to'g'ri shtrixli harflardagi bunday ziddiyat harflarni bir-biridan darrov farqlashni qiyinlashtiradi.

3. *Chiziqlar va o'smalar*. Chiziqlar harflarning ko'rinishini yaxshilaydi. Shu bilan ularni o'qishni osonlashtiradi. Chiziqlar juda qalin chizilsa, matnni o'qish og'irlashadi, chunki harflarni og'irlashtirib yuboradi.

4. *Harf tomonlarining nisbati*. Harf enining balandligiga nisbati matnlarni o'qishdagi asosiy omil hisoblanadi. Harf eni balandligiga nisbatan teng yoki kattaroq bo'lsa, uni o'qish qiyinlashadi. Shuning uchun harf eni balandligiga nisbatan kichikroq olinishi lozim.

5. *Harf unsurlari orasidagi oraliq (harf ichi ravshanligi)*. Harf unsurlari bir-biriga juda ham yaqin olinsa va ular yo'g'on bo'lsa, uni o'qish ancha qiyinlashadi. Shuning uchun harf unsurlari qulay tarzda o'qiladigan qilib yozilishi lozim. Harflarning asosiy shtrixlari yo'g'onroq tanlansa, ular orasidagi oraliq shtrixlarga nisbatan kengroq olinishi lozim.

6. *Harflarning umumiy soddaligi yoki harflarning tuzilishi murakkabligi*. Harflar qancha murakkab tuzilishga ega bo'lsa, matnni o'qish

shuncha qiyinlashadi. Shuning uchun harflarni yozishda matnni o'qish qulay bo'ladijan tomonlariga e'tibor berib yozish tavsiya etiladi.

Bulardan tashqari matn turli xildagi harflar aralashmasidan yozilgan bo'lsa ham uni o'qish qiyinlashadi. Masalan, «ИШОНЧ» gazetasidagi sarlavhada «И» harfi boshqalariga nisbatan yozilishi jihatidan ajralib turadi (58-shakl). Bu yerda bog'lovchi qiya shtrix ingichkarroq, vertikal shtrixlar boshqalar kabi yo'g'onroq yozilganda, boshqa harflarga mos tushar edi.



58-shakl

«Ч» harfi esa «О» harfiga moslashtirilmagan, chunki qisqa vertikal va bog'lovchi shtrixlar o'zaro yoy orqali o'tmagan.

Harflardagi mutanosiblik va ritm

Harflar bir xil o'xshashlikka ega bo'lган unsurlardan tuzilgan bo'ladi. Unsurlari turli ko'rinishga ega bo'lган harflar yonma-yon joylashtirilganda o'zaro mosligini yo'qotadi. Masalan, О harfidagi ustki va ostki o'tish chizig'inining yo'g'onligi H harfidagi о'rtta bog'lovchi shtrix bilan teng bo'lsa (59-shakl, a), ular mutanosib, agar bu chiziqlar orasida farq bo'lsa (59-shakl, b), ular o'zaro nomutanosib hisoblanadi.




59-shakl

Qadimdan xattot va rassomlar (Pacholi, Dyurer, Tori va b.) harflar uchun matematik va geometrik qoidalar yaratganlar.

Ular harflarni kvadrat ichiga joylashtirib, har bir harf uchun qoida ishlab chiqishgan. Dyurer harflarning asosiy shtrixi yo'g'onligini kvad-

rat tomoniga nisbatan $1/10$ yoki $1/9$ nisbatda, bog'lovchi shtrixlarni asosiy shtrixga nisbatan $1/3$ nisbatda olgan (46-shakl).

Yumaloq harflardan O ning vertikal simmetriya o'qini tik (60-shakl, *a*), chapga qiyalatilgan (60-shakl, *b*) yoki o'ngga qiyalatilgan (60-shakl, *d*) holda yozish mumkin. Bunday tasvirlashda harf jo'shqinligi o'zgarib turadi.




60-shakl

Alifboda ritm juda katta ahamiyatga ega. undagi harflarning enini bir xil olish mumkin. U vaqtida bir xil ritm hosil bo'ladi. Eni turli kenglikda olingen harflardan murakkablashgan ritmik tizim hosil bo'ladi. Harflardagi unsurlarning tuzilishi (shakli) bir xil ko'rinishga ega bo'lsa (eni har xil bo'lishiga qaramay), bir xil unsurli ritmik tizim hosil bo'ladi.

Harflardagi nisbat


Uyg'onish davrida ko'p rassomlar, haykaltaroshlar va me'morlar tasviriy san'at, me'morchilik va harflarda «Oltin kesim»dan foydalanshigan. Oltin kesim deganda to'g'ri chiziq kesmasini kerakli nisbatlarda bo'lish tushuniladi. $\frac{1}{x} = \frac{x}{1-x}$, bu yerda 1 son butun kesmaga teng, x esa shu kesmaning kattaroq bo'lagi hisoblanadi (61-shakl, *a*). Oltin kesimni yasash: ixtiyoriy uzunlikda olingen *AB* kesmaning *B* uchidan unga perpendikular chiziladi va unga $AB/2$ kesma, ya'ni *BE* o'chab qo'yiladi. *AC* chiziqdagi $AC/2$ kesma qo'yilib, *F* nuqta belgilanadi. *A* nuqtadan *AF* radiusda chizilgan yoy orqali *AB* da *T* nuqta aniqlanadi, bu yerda $\frac{AB}{AT} = \frac{AT}{BT}$ mos $\frac{1}{x} = \frac{x}{1-x}$ ga. Endi oltin kesim orqali aniqlangan *AT* va *TB* kesmalar yordamida to'g'ri to'rtburchak (61-shakl, *b*), *AE* (*BC*) yordamida kvadrat chizilsa (61-shakl, *d*), shu oltin kesim yordamida chiziladigan harf nisbatlari topilgan bo'ladi.



61-shakl


Albatta, oltin kesim qoidasi barcha harflar uchun yagona qonun bo‘la olmaydi. Uning yordamida aniqlangan nisbatlar u yoki boshqa tomonga o‘zgartirilishi mumkin. Bunday o‘zgartirishlar har bir harfning individuallik xususiyatidan kelib chiqadi va ularning qulay o‘qilishi inobatga olinadi.

62-shaklda harflarning eni ularning ichki ravshanligiga ta’sir etuvchi nisbatlarda bajarilganligi ko‘rsatilgan.



62-shakl

63-shaklda H harfinining asosiy shtrixlari yo‘g‘onligi o‘zgarib turuvchi va ular oralig‘idagi masofa (ravshanlik) bir xilda saqlanganda harf xususiyatining o‘zgarishi tasvirlangan. Harflarning asosiy shtrixlari va ular orasidagi ichki ravshanligi harfni idrok qilishga ta’sir etishi 64-shaklda ko‘rsatilgan. Harfning asosiy shtrixlarini bog‘lovchi o‘rtal shtrixning joylashishi uni idrok qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, 65-shaklda uning joylashishi orqali harfning xususiyati o‘zgarishi ko‘rsatilgan.



63-shakl




64-shakl



O'rtalashtrix A, P, R harflarda o'rtalashchiziq ostida, B, E, F, H, K harflarda o'rtalashchiziq ustida chizilsa, harf me'yorida idrok qilinadi. Teskarisi bo'lsa, mutanosiblik yo'qoladi va idrok qilish qiyinlashadi. Ammo o'rtalashtrix o'rtalashchiziqda chizilsa ham idrok qilish ta'minlanadi.

Lekin ba'zi xattot va rassomlar yaratgan alifbodagi harflarda chetga chiqishlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda alifboning umumiy tuzilishiga (kompozitsiyasiga) zid kelmasligi hisobga olinadi.

Odam bo'yidan yuqoriqda joylashtiriladigan matnlarda harflardagi o'rtalashtrixlar ularning o'rtasidagi chiziqdagi olinsa, perspektiv qisqarish hisobiga harfnинг yuqori qismi biroz kichikroq ko'rindi. Shunda harfdagi mutanosiblik saqlangan bo'ladi.



66-shakl



67-shakl

Harfning eniga nisbatan vertikal o'rta chizig'i uning simmetriya chizig'i hisoblanib, harfning jo'shqinligiga ta'sir etadi (66-shakl). M harfining diagonal unsurlari turli ko'rinishlarda chizilganda harfning xususiyatiga katta ta'sir etadi (67-shakl).

Harflardagi mutanosiblik va mustahkamlik

Harflardagi unsurlarining yozilishi ulardagi mutanosiblik va mustahkamlikka ta'sir etadi (68-shakl), harflarning jo'shqinligiga bog'liq bo'ladi va simmetrik harflarda ular yorqin namoyon bo'ladi.

A, H, P, R harflardagi o'rta shtrixlarning o'rta chiziqqa nisbatan joylashishi, K harfining qiya shtrixlari ularning mutanosibligi va mustahkamligiga ta'sir etadi. Xuddi shu hol E va F harflaridagi gorizontal shtrixlarning bir-biriga nisbatan uzun va qisqa yozilishida kuzatiladi. C va G harflarida ularning ustki va pastki qismlarining o'zaro joylashishi bu harflar uchun katta ahamiyatga ega.

Birinchi C va G ga nisbatan ikkinchi C va G mustahkamroq hamda mutanosibroqdir. Chunki pastki qismlari ustki qismlariga nisbatan biroz o'ngroqqa surilgan (68-shakl).

X harfi asosiy shtrixlarining o'zaro kesishish joyi o'rta chiziqqa nisbatan turlicha joylashishi 68-shaklda ko'rsatilgan. Asosiy shtrixlardan biri yo'g'on, ikkinchisi ingichkaroq tasvirlanganda ingichka shtrixni ba'zi hollarda biroz siljitimishga to'g'ri keladi.

HHHNNNN

EEEKKKK


CCCCGGG

XXXXXXX

68-shakl

Harflarda optik aldanish

Harflar asosan yumaloq, uchburchak va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega bo‘ladi. Bir xil kattalikdagi (balandlikdagi) yumaloq va uchburchaklar to‘g‘ri to‘rtburchakka nisbatan kichikroq (pastroq) ko‘rinadi (69-shakl, a). Matnda bunday optik aldanishning oldini olish uchun yumaloq va uchburchak harflar to‘g‘ri to‘rtburchaklilarga nisbatan biroz kattaroq yoziladi (69-shakl, b).




69-shakl

Shtrixlari bir xil qalnlikda yozilgan harflarda gorizontal shtrixlar yo'g'onligi vertikal shtrixga qaraganda qalinroq ko'rindi. Bu yerda ham gorizontal shtrix biroz ingichkaroq yozildi (70-shakl). Ichi bo'yalgan aylana bo'yalmagan aylanaga nisbatan kichikroq ko'rindi. Bunday hol *irradiatsiya* deyiladi. O'zaro parallel to'g'ri chiziqlar ham har xil yo'naliishdagi shtrixlar ta'sirida parallel emasdek tuyuladi.

Gorizontal kesma vertikal kesmaga nisbatan qisqaroq ko'rindi (71-shakl). Jumla yozilayotganda harfdagi bunday optik aldanishlar (*irradiatsiya*)ga yo'l qo'ymaslikka harakat qilinadi. Harf yozishda ularning qog'oz sathida qanday joylashishini hisobga olish yaxshi natija beradi.



70-shakl



71-shakl

Harflarda fazoviylilik

H harfi qog'oz tekisligida (72-shakl, *a*), qog'oz qa'riga kirib ketayotgandek (72-shakl, *b*) tuyuladi. Bunday holat harflarning fazoviyligi deyiladi. Harflarning fazoviyligi bir xil turga ega bo'lgan unsurlardan tuzilgan (73-shakl, *a*) bo'lsa, ular tabiiydek tuyuladi. Har xil turdag'i unsurlardan yozilgan harflar bo'laklari o'zaro qovushmaydi (73-shakl, *b*).



72-shakl

73-shakl

Harflardagi shtrixlar turli qalnliklarda yozilsa, ularni navbat bilan tatbiq qilishga ahamiyat beriladi. Umumiyoq qoidaga binoan, odatda, harflarda vertikal va qiya shtrixlar yo'g'onroq, gorizontal va qiya shtrixlar ingichkaroq yoziladi. Shtrixlarning joylashishida umumiyoq qabul qilingan ko'rinishiga (74-shakl, *a*) va unga zid (74-shakl, *b*) tasvirlanishiga e'tibor bering.




b

74-shakl

Harflardagi asosiy va bog'lovchi shtrixlar

Asosiy shtrixning shakli to'g'ri va bir xil yo'g'onlikda chiqiqli yoki chiqiqsiz bo'ladi (75-shakl, *a*). Harflar ko'rinishiga bar xil shakllar berish maqsadida eng avval, asosiy shtrix shaklini o'zgartirishga harakat qilinadi (75-shakl *b, d, e, f, k*). Undan keyin harf unsurlari, ya'ni bog'lovchi chiziq va o'smalar shakllariga chiroy beriladi. 76-shaklda harflarning gorizontal shtrixlari va ulardagi chiqiqlarning turli shakllarda tasvirlanishi ko'rsatilgan.



75-shakl



76-shakl

77-shaklda chiqiqlarning har xil shakllarda bo'lishi mumkinligi tasvirlangan. 78-shaklda berilgan harflarga nazar tashlasangiz chiqiqlar harf xususiyatiga ta'sir etayotganini ko'rasiz.



77-shakl



78-shakl



79-shakl

O'smalar ko'proq harf jo'shqinligiga ta'sir etadi (79-shakl).


Harflardagi nuqta, tomchi va yolqinsimon unsurlar

Ba'zi harflarda nuqta (80-shakl, *a*), tomchi (80-shakl, *b*) va yolqinsimon (80-shakl, *d*) ko'rinishidagi unsurlar tatbiq qilinadi. Nuqta ko'rinishidagi unsurlarning asosiy shtrix bilan bog'laydigan shtrixga nisbatan turli ko'rinishlari 81-shakl, *a* da, tomchi ko'rinishiga ega bo'lgan unsurlarning ba'zi ko'rinishlari 81-shakl, *b* da ko'rsatilgan. Harflardagi yolqinsimon unsurlarning asosini cho'ziq to'rtburchak, trapetsiya, parallelogramm hosil qiladi. Bunday shakllarning uchlari xohishga ko'ra turli ko'rinishlarda chizilishi mumkin (82-shakl).



80-shakl


81-shakl



82-shakl


Harf skeleti va unga qalinlik qo'shish

Harf skeleti chizilgandan keyin uning ba'zi unsurlari kerakli yo'g'onlikdagi shtrixlarga aylantiriladi, ba'zilari o'z kattaligida qoladi. Harf skeletiga qalinlik qo'shish ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi usulda harf skeletining ichki tomoniga qalinlik qo'shilsa, ikkinchi usulda skeletning tashqi tomoniga bir xil yoki har xil qalinlik qo'shiladi (83-shakl, a, b). H, E, F kabi harflardagi bog'lovchi unsurlari o'zgartirilmasdan qoldirilishi, ustiga yoki ostiga yoki ikkala tomoniga qalinlik qo'shilishi mumkin (83-shakl, c).



83-shakl

Yumaloq harflarda qalinlik kiritish turlicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin (84-shakl). Bulardan tashqari, harflarga jo'shqinlik berish maqsadida ularning simmetriya o'qlari o'zgartiriladi va bu o'qlarga perpendikular chizilgan chiziqlar bo'yicha qalinlik qo'shiladi (60-shakl).



84-shakl

66-shaklda A harfining simmetriya ko‘rinishidan nosimmetriya holatiga o‘tishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, 85-shaklda uning uchli qismi qanday ko‘rinishlarda tasvirlanishiga ayrim misollar keltirilgan. K va R harfining «shoxlari» ham turli ko‘rinishlarda tasvirlanishi mumkinligi 86-shaklda berilgan. O harfining bir qismini qirqish yo‘li bilan chiziqsiz hosil qilingan C va G larda vazminlik paydo bo‘ladi (87-shakl).



85-shakl



a



b

86-shakl



87-shakl

Harflarni guruhlash

Alifbodagi harflar tuzilishiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi.

I guruh – vertikal va gorizontal shtrixlardan tuzilgan E, F, H, I, L, T harflar.


II guruh – vertikal va qiya shtrixlardan tuzilgan A, K, M, N, Y, X, Z harflar.

III guruh – to'g'ri va yoyli shtrixlardan tuzilgan B, D, G, P, R, U harflar.

IV guruh – egri shtrixli O, C, Q, S harflar.

Raqamlar

Raqamlar ham alisboning ajralmas qismi bo'lgani uchun yangi alif-bo harflarini yaratishda unga mos raqamlar ishlab chiqiladi. Raqam-larning balandligi doimo bosma (katta) bosh harflar balandligiga teng yoziladi. 2, 3, 8, 9 raqamlarining ustki, 3, 5, 6, 8, 9 raqamlarining ostki unsurlari bir xil yozilishi mumkin (88-shakl).




88-shakl

Kichik (yozma) harflar

Barcha alifbolardagi kichik (yozma) harflar katta (bosh) harflarga moslashtirib yoziladi. Ba'zi harflar bosh harflarga o'xshab yozilsa, ba'zilari undan tubdan farq qiladi, ba'zilari esa qisman farq qiladi. Yozma harflarning aksariyati *o* harfi asosida yoziladi (89-shaklda ularning yozilishi poligrammada ko'rsatilgan). Yozma harflar bosh harflardan kichikroq yoziladi, misol uchun bosh harfning balandligi

10, eni 7 mm ga teng bo'lsa, yozma harfning balandligi 7, eni 5 mm ga barobar olinadi. Ustiga chiqqan unsurli *b*, *d*, *h*, *k*, *I* kabi harflar balandligi bosh harflar balandligiga teng yoziladi (90-shakl). Chiqig'i ostiga o'sgan *g*, *j*, *p*, *q*, *y* kabi harflarning umumiy balandligi ham bosh harflar bo'yiga teng bo'ladi (91-shakl).



89-shakl

Bb Dd Hh Kk

90-shakl

Kichik harflar asosan qo'lda yozishga moslashtirilgan bo'lib, jumla yozishda qo'lni qog'ozdan kam ko'tarishga, ya'ni bitta so'zni qo'lni uzmasdan yozishga mo'ljallangan.

Pp Qq Gg Jj

91-shakl

Alifbo – bir butun grafik va ritmik tizim

Alifbodagi har bir harf, raqamlar orasida o‘zaro grafik va ritmiklik mavjud bo‘lib, ular to‘rt guruhgaga (metrik, grafik, ritmik, fazoviylik) bo‘linadi. Alifbodagi metriklik harflar uchun umumiy bo‘lgan o‘lchamga bo‘ysunishdir. Asosiy shtrixlarning yo‘g‘onligi balandligiga nisbatan 1/10 olinadi. Bog‘lovchi unsurlarning yo‘g‘onligi asosiy shtrixning yarmiga teng chiziladi. Gorizontal chiqiqlar asosiy shtrixning ikkala tomoniga unga barobar masofada chiqariladi. T, E va F harflardagi o‘smlar vertikal chiziladi. Ba’zi hollarda E harfining pastdagi o‘smasi o‘ngga qiyalagan qilib chizilishi mumkin.

Alifbodagi bunday qat’iylik uning grafikasi va ritmikligi doimiyligidan darak beradi.

Alifbodagi fazoviylikka jumladagi harflar va so‘zlar orasidagi oraliq orqali erishiladi. 92-shakldagi «MUSTAQILLIK» so‘ziga e’tibor berilsa, harflar orasidagi masofalar qoidaga asosan bir xilda qoldirilgan (92-shakl, a). Bunday holda harflar orasida kerak bo‘lmagan ortiqcha joylar paydo bo‘лади. Natijada ortiqcha fazo (ravshanlik) so‘zni o‘qishni qiyinlashtiradi. Agar harflar orasidagi oraliqlar yonma-yon joylashgan harflarning shakliga e’tibor berib yozilsa, so‘zda bir ritmdagi fazoviylik (ravshanlik) vujudga keladi va uni o‘qish osonlashadi (92-shakl, b).



a




b

92-shakl

Har bir yozilgan so‘zni, natijada jumlanı qiyalmay oson o‘qish uchun yoziladigan harfning yonma-yon joylashishiga e’tibor beriladi. Yumaloq va to‘g‘ri burchakli harflar orasidagi oraliq to‘g‘ri burchakli harflar orasidagi masofaga nisbatan kamroq qoldiriladi. A va T kabi harflar oralig‘ida masofa qoldirilmasligi ham mumkin.

«MUSTAQILLIK» so‘zining yozilishidagi shtrixlangan joylarga e’tibor berilsa, birinchi holatda (93-shakl, a) harflar orasida ortiqcha joylar ko‘p, ikkinchi holatda (93-shakl, b) bu ortiqcha joylar harflar

